

SOG'LOM OVQATLANISHNING BOLALAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Sh.M.Ro'ziyeva

“Maktabgacha va inklyuziv ta'lim
metodikasi” kafedrası dosenti

Kalit so'zlar

Ovqatlanish, madaniyati, ovqatlanish, ochlik, to'yib ovqatlanmaslik, COVID-19 pandemiyasi, ovqatdan zaharlanish, konsepsiya, biologik, ochlik.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ovqatlanish madaniyati, ovqatlanish, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, davlatlar misolida, COVID-19 pandemiyasi, ovqatdan zaharlanish kabi ma'lumotlar berilgan.

Ovqatlanish madaniyati, oziq-ovqat turlari va rasoni insoniyat evolyusiyasi va taraqqiyoti bilan birgalikda uzlyuksiz, muttassil rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ya'ni insoniyat tarixi o'z navbatida taomlar, oziq-ovqat mahsulotlari tarixidir. Bugungi zamonaviy dunyoda ovqatlanish nafaqat insonning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini belgilaydigan, balki uning tom ma'noda biologik mavjudot sifatidagi salomatligi muhofaza qilishning muhim sharti sifatida har galgidan ko'proq e'tirof etilmoqda.

Ochlik va to'yib ovqatlanmaslik insonlar mehnat qobiliyatini pasayishi va kasalliklarga chalinuvchanligining oshishiga, oxir-oqibatda esa turmush sifatini yomonlashuviga olib kelib, dunyo iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lib qolmoqda. Ochlikka barham berish iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ta'lim olishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, tenglik va ijtimoiy taraqqiyotga katta hissa qo'shishi mumkin. Bu esa insoniyat uchun yaxshi kelajak qurishning muhim shartidir. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030 yilga qadar ochlikni bartaraf etish uchun har yili o'rtacha 267 milliard dollar miqdorida qo'shimcha mablag' kerak bo'ladi.

Rivojlangan davlatlar misolida olganda, AQSH ning Aholini tadqiq qilish byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 1960 va 1975 yillar oralig'ida mamlakatda umr ko'rish yoshining 75 yoshdan 70 yoshgacha pasayganligi aniqlangan, bunda esa o'lim sabablarining yarmidan ko'prog'i noto'g'ri ovqatlanish va nosog'lom hayot tarziga to'g'ri kelgan. Shuningdek, irsiy kasalliklar bilan tug'ilish 13,2% ga oshgan, aholining semirib ketish kuzatilgan. Shundan keyin 20 yillik aholini sifatli ovqatlantirish dasturi joriy etilgan va natijada yuqumli bo'lmagan kasalliklarni 50%ga kamaytirishga erishilgan va aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi uzayib 1963 yilgi darajaga yetgan.

Davrimizga kelib dunyo bo'ylab tarqalgan COVID-19 pandemiyasi sog'lom ovqatlanish masalasining dolzarbligini yanada oshirdi. Ya'ni “Global iqlim o'zgarishlari, iqtisodiyot globallasuvi sharoitida yuqori daromad olish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarida inson salomatligiga zararli turli antibiotik, gormonlar va shu kabi komponent va qo'shimchalar keng miqyosda qo'llanishi natijasida dunyo bozorida xavfli mahsulotlar hajmlari o'sib borishi, o'simliklar zararkunandalari hamda turli xavfli viO'zbeklar tarqalishi qayd etilgan muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Jumladan, 2020 yildan boshlab epideomologik xavf-xatarlar kuchaygan, ya'ni COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq sharoitda aholi iste'moli uchun asosiy turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda yetkazib berish masalalari dunyo miqyosida eng dolzarb vazifa sanalmoqda”.

Garchi faqatgina ovqatlanish insoniyatni yuqumli kasalliklardan to'liq himoyalay olmasada, yuqumli kasalliklarga chalingan paytda va undan keyin, ayniqsa, har qanday davrda immun tizimini mustahkamlab borish uchun sog'lom ovqatlanish zarurligi jahon miqyosida e'tirof etilmoqda. "To'laqonli ovqatlanish–bizning kasalliklardan himoyalaniish va hayotiy energiyamiz va faolligimizning manbaidir. Noto'g'ri ratsion bilan bog'liq ovqatlanish muammosi turli xil bo'lgani holda, ayniqsa yosh avlodga bog'liq holda olib qaraganda ularga ta'lim-tarbiya berishning pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Demak uning taqdiriga ta'sir qiladi, kambag'allik va to'yib ovqatlanmaslik zanjirini uzish imkoniyatlarini pasaytiriradi, o'z navbatida fuqarolar va davlatlar uchun ham jiddiy oqibatlar keltirib chiqaradi" deyiladi BMTning Oziq –ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bayonotida.

"Sog'lom ovqatlanish butun hayot davomida noto'g'ri ovqatlanishning barcha shakllari va qator yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olishda va salomatlikning buzilishining oldini olishga zamin yaratgan", deya ta'kidlaydi Jahon salomatlik tashkiloti.

O'zbekistonda keyingi yillarda aholi salomatligini mustahkamlash, har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, kambag'allikni qisqartirish, xususan, aholi va bolalarni sog'lom ovqatlanish masalasiga davlat tomonidan doimiy e'tibor berib kelinmoqda. Davlatning bu boradagi faol say'i harakatlari xalqaro tashkilotlari va jahon hamjamiyati tomonidan chuqur e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O'zbekiston strategiyasi nomli kitobida Farzandlarimiz tarbiyasi eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu yo'nalishni tizimli rivojlantirish bo'yicha aniq davlat dasturlari qabul qilinadi. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobarga oshirilib, 100 foizga yetkaziladi.

Bu vazifa nafaqat zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, balki oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlantirish orqali ham hal etiladi.

"Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzliksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» da "Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qilishi" ta'kidlanib, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash" maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi va "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash normativlarini tasdiqlash" bilan bog'liq vazifalar belgilandi.

Shuningdek, “MTTda bo‘lgan paytda bolalarning ovqatdan zaharlanishi va jarohat olishi hollari soni” “Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida, sifatli va to‘laqonli ijro etish bo‘yicha vakolatli organlarning faoliyatini baholash indikatorlari sarasiga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonunida sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lig‘ini saqlash vazifalari sarasiga kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Yusupov. Global inqiroz va pandemiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning dolzarb masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2020 yil 2/2020 (№ 00046)
http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/9_Yusupov.pdf
2. M. Sharipov. Rasionalnoye pitaniye naseleniya kak komponent kachestva yego jizni v usloviyax rymochnoy ekonomiki. Avtoreferat dissertatsii kandidata sosiologicheskix nauk. Kazan, 2010 g. str. 6.
3. Saidaxmedova Nodira Ilxomovna. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari va ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020 yil. 5-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyeyovning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/4057>